



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 5 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 5

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 5



ТОШКЕНТ-2025

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори, в.б.профессор,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий
педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб


Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Umurzok Alibekov, Alisher Abdumatov, Ismoiljon Rayimjonov XVIII-XIX ASRNING BIRINCHI YARIMIDA EKOMUHITDAGI O'ZGARISHLAR, SIYOSIY- IJTIMOIY ETNIK JARAYONLAR XUSUSIDA.....	5
2. Nodira Babadjanova MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK BARQARORLIK OMILI SIFATIDA.....	10
3. Дилмурод Бабожонов ХОРАЗМ ХОНЛИГИДА МАХФИЙ МАҲКАМА ФАОЛИЯТИ.....	16
4. Эргашали Эркаев ЎЗБЕКИСТОНДА БИРИНЧИ БЕШ ЙИЛЛИК ДАВРИДА ИРРИГАЦИЯНИ ТИКЛАШ ВА РИВОЖЛАНТИРИЛИШИ (1928-1932 йиллар).....	27
5. С.И.Габриэльян ПОЛИТИЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МУСТАФЫ КЕМАЛЯ АТАТЮРКА: ЭТАПЫ СТАНОВЛЕНИЕ.....	32
6. Zebo Ismatullayeva O'ZBEKISTON VA GERMANIYA MUNOSABATLARIDA XALQ DIPLOMATIYASI O'RNI.....	43
7. Jaxongirbek Jonqobilov SURXONDARYO VILOYATIDA IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI YILLARDA PAXTACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI DAVLAT SIYOSATI.....	50
8. Akmal Mengliboyev SOVET HOKIMYATI DAVRIDA SURXONDARYODAGI IJTIMOIIY QATLAMLARNING O'RNATILISHI: QATAG'ON VA JAMOALASHTIRISH SIYOSATINING TA'SIRI.....	55
9. Vafa Quliyeva, Qanira Pirkuliyeva THE ARAN-KARABAKH CARPET SCHOOL (the Karabakh School of carpet weaving).....	62
10. Ботиржон Тожибоев ҚИЗИЛ АРМИЯГА ҚАРШИ САМАРҚАНД ВИЛОЯТИДАГИ ҚАРШИЛИК ХАРАКАТЛАРИ.....	70
11. Хулкар Холикулова ГЕНДЕР ТЕНГЛИК ВА АЁЛЛАР ҲУҚУҚЛАРИ: ЖАҲОН ҲАМЖАМИЯТИНИНГ ХАЛҚАРО ТАШАББУСЛАРИ.....	76
12. Бахтиёр Юлдашев, Гулсанам Тилавбаева “АНГРЕН – ПОП” ЭЛЕКТРЛАШТИРИЛГАН ТЕМИР ЙЎЛ ЛИНИЯСИ ҚУРИЛИШИ ВА УНИНГ МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТИМИЗДАГИ ЎРНИ.....	81



Nodira Abdullayevna Babadjanova,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
O‘zbekiston tarixi kafedrası dotsenti,
tarix fanlari nomzodi

MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIK BARQARORLIK OMILI SIFATIDA

For citation: Nodira A.Babadjanova. INTERNATIONAL CONSENT AND RELIGIOUS TOLERANCE AS A FACTOR OF STABILITY. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 5, pp.10-15

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15587236>

ANNOTATSIYA

Maqolada O‘zbekiston diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikka erishish borasida o‘ziga xos tajribaga ega ekanligi, eng katta yutug‘imiz – millatlararo do‘stlik, fuqarolar totuvligi, yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi ekanligi, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik g‘oyasining mamlakat rivoji va taraqqiyotidagi ahamiyati, O‘zbekiston respublikasining ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali davlat ekanligi, ijtimoiy barqarorlik hamda davlat va jamiyat taraqqiyotini ta‘minlashda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik munosabatlarining ahamiyati ko‘rsatilgan. O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida jamiyatda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, do‘stlik muhitini va ko‘p millatli katta yagona oila tuyg‘usini mustahkamlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalash, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma‘rifiy aloqalarni kengaytirishga yo‘naltirilgan ishlar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: diniy bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik, vatan ravnaqi, millat, Konstitutsiya, qonun, millat, til, din, fuqaro, huquq, milliy madaniyat, an‘ana, urf-odatlar.

Нодира Абдуллаевна Бабаджанова,
кандидат исторических наук, доцент
кафедры истории Узбекистана

Узбекского государственного университета мировых языков

МЕЖНАЦИОНАЛЬНОЕ СОГЛАСИЕ И РЕЛИГИОЗНАЯ ТОЛЕРАНТНОСТЬ КАК ФАКТОР СТАБИЛЬНОСТИ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается тот факт, что Узбекистан обладает уникальным опытом достижения религиозной толерантности и межэтнического согласия, что нашим величайшим достижением является межнациональная дружба, гражданское согласие, мир и спокойствие в нашей стране, значение идеи межэтнического согласия и религиозной толерантности в развитии страны, тот факт, что Республика Узбекистан является многоэтническим и

многоконфессиональным государством, социальной стабильности государства и общества. показано значение межнационального согласия и отношений религиозной толерантности в обеспечении его развития. На новом этапе национального развития Узбекистана проанализирована деятельность, направленная на обеспечение межэтнического согласия и религиозной толерантности в обществе, укрепление атмосферы дружбы и чувства большой многонациональной семьи, воспитание молодежи в духе уважения национальных и общечеловеческих ценностей, расширение культурно-просветительских связей с зарубежными странами.

Ключевые слова: религиозная толерантность, межнациональное согласие, национальное развитие, нация, Конституция, закон, нация, язык, религия, гражданин, право, национальная культура, традиции, обычаи.

Nodira A. Babadjanova,
Uzbek State University of World Languages,
Associate Professor of the Department of History of Uzbekistan,
Doctor of Historical Sciences

INTERNATIONAL CONSENT AND RELIGIOUS TOLERANCE AS A FACTOR OF STABILITY

ABSTRACT

The article examines the fact that Uzbekistan has a unique experience in achieving religious tolerance and interethnic harmony, that our greatest achievement is interethnic friendship, civil harmony, peace and tranquility in our country, the importance of the idea of interethnic harmony and religious tolerance in the development of the country, the fact that the Republic of Uzbekistan is a multi-ethnic and multi-religious state contributes to the social stability of the state and society. The importance of interethnic harmony and relations of religious tolerance in ensuring its development is shown. At the new stage of national development of Uzbekistan, activities aimed at ensuring interethnic harmony and religious tolerance in society, strengthening the atmosphere of friendship and the feeling of a large multinational family, educating young people in the spirit of respect for national and universal values, expanding cultural and educational ties with foreign countries were analyzed.

Index Terms: religious tolerance, interethnic harmony, national development, nation, Constitution, law, nation, language, religion, citizen, law, national culture, traditions, customs.

1. Dolzarbligi:

Globalashuv davrida diniy bag'rikenglik va millatlararo munosabatlar masalasi xalqaro davlatlar oldida turgan g'oyat muhim masalalardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda ham mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Mazkur yo'nalishda millatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish, turli millat vakillarining tili, dini, madaniyati, urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar yaratish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Zero, mamlakatimizda hukm surayotgan do'stlik va birdamlik muhiti – tinchlik va barqarorlik, amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yanada yuksaltirishning eng muhim omilidir [1], deb O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlagani ham bejiz emas. Bu borada respublikada yashovchi 130 dan ortiq millat va elat vakillari o'rtasida hamjihatlikni mustahkamlash, millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirish, insonparvarlik qadriyatlarini, bu borada amalga oshirilayotgan madaniy-ma'rifiy ishlarni ilmiy asosda yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday ko'p sonli millat va elat vakillarining birgalikda, hamkor va hamjihat bo'lib umr kechirishi natijasida ularning har biri ma'naviy va madaniy jihatdan boyib, o'zaro munosabatlar ta'sirida ko'p millatli xalqimizning turmush tarzi yanada yuksalmoqda.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Maqolada umumqabul qilingan metodlar – ilmiylik, xolislik, tarixiylik kabi usullardan foydalangan holda, O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida ijtimoiy barqarorlik va mamlakat taraqqiyotini ta‘minlashda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik – muhim omil ekanligi ilmiy o‘rganildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida davlat tili o‘zbek tili ekani mustahkamlangani barobarida, O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an‘analari hurmat qilinishini ta‘minlashi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratishi qayd etilgan. Shu asosda hozirgi vaqtda mamlakatimiz ta‘lim muassasalarida o‘qish 7 tilda olib borilayotgani, gazeta va jurnallar 10 dan ortiq tilda chop etilayotgani, tele-radio ko‘rsatuvlar va eshittirishlari esa 12 tilda efirga uzatilayotgani juda muhimdir.

O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasida —Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi deb belgilab qo‘yilgan [2]. Bag‘rikenglik fuqarolar orasida totuvlikni ta‘minlab, ijtimoiy nizolarning yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymaydi. Bugungi kunda nafaqat O‘zbekistonda, balki jahonda diniy bag‘rikenglik, diniy konfessiyalararo o‘zaro hurmat va bir-birini tushunish hayotiy tamoyilga aylanmoqda. Bu – mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab olib borilgan odilona siyosatning samarasi, shuningdek, o‘zbek xalqining yuksak fazilati sabab bugun barcha millat va din vakillari tinch va ahil hayot kechirib kelmoqda.

3. Tadqiqot natijalari:

O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik – davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida tarixiy ildiz va mustahkam qonuniy asoslarga ega. Jamiyatdagi o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va bag‘rikenglik kabi oliyjanob fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga uyg‘un yashash tamoyili tobora mustahkamlanib borayotgani O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millat va elat vakillarining hayot tarzi jahon hamjamiyati tomonidan keng e‘tirof etilmoqda. Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik milliy mafkuraning asosiy g‘oyalaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, — Mamlakatimizda millatlar va konfessiyalararo hamjihatlikni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosati izchil amalga oshirilmoqda [3]. Bu o‘lkada 130 dan ortiq millat va elat vakillari yagona oila farzandlaridek ahil yashayotganligi, ana shunday ko‘p sonli millat va elat vakillarining birgalikda, hamnafas va hamjihat bo‘lib umr kechirishi natijasida ular bir-birlarini ma‘naviy va madaniy jihatdan boyitib bormoqda. O‘zaro munosabatlar ta‘sirida ko‘p millatli xalqimizning turmush tarzi yanada yuksalib borayotgani sabab, Yangi O‘zbekistonning dunyo hamjamiyatidagi imidji kun sayin ijobiy tomonga o‘zgarib bormoqda. Shuningdek, ularning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, ta‘lim olishi, o‘z qiziqishi va layoqati bo‘yicha kasb-hunar egallashi, mehnat qilishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ayni paytda turli millat va elatlarning milliy an‘ana va qadriyatlarini asrab-avaylash, ularni yanada rivojlantirish, boyitish masalasi davlat siyosatining doimiy e‘tiborida bo‘lib kelmoqda. O‘zbekistonning mustaqillik kunigacha 211 ta diniy tashkilot ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib adliya boshqarmalaridan 16 ta konfessiyaga aloqador 2328 ta diniy tashkilot ro‘yxatdan o‘tgan. Bularning aksariyatini islomiy tashkilotlar tashkil etadi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan masjidlar soni 2101 tani tashkil etadi, shuningdek, Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiy xalqaro ilmiy tadqiqot markazlari, Hadis ilmi maktabi, Mir Arab oliy madrasasi, Toshkent islom instituti, 10 ta madrasa va Xalqaro islom akademiyasi shular jumlasidandir [4]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi —2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF-60-son Farmonining — Ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish nomli V bandida —Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash masalasi 74-maqsadda keltirilgan bo‘lib, unda — millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasining izchil amalga oshirilishini ta‘minlash zarurligi ta‘kidlangan[5].

Mamlakatda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o'z e'tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular o'rtasida qadimiy mushtarak an'analarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston Yangi Konstitutsiyasining 19-moddasida ta'kidlanganidek, — O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar [6], — deb belgilab qo'yilganligi, ko'pmillatli xalqimiz o'rtasidagi totuvlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlash uchun yaratilgan zamindir. Zero, Prezident Sh.Mirziyoyevning — Jamiyatimizda millatlararo totuvlik va bag'rikenglik muhitini mustakamlashga qaratilgan ishlarimiz sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda [7], deb ta'kidlangani ham bejiz emas. Zero, diniy bag'rikenglikni, millatlararo totuvlik, hamjihatlik va ayniqsa, o'zaro munosabatlarni ta'minlash borasida amalga oshirilgan tadbirlar va ularning natijalarini tahlil etish hozirgi kunning dolzarb ilmiy masalalaridan biridir.

O'zbekistonda millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni ta'minlash uchun barcha huquqiy asoslar hamda zarur shart-sharoitlar yaratib berilgan, amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar ham, olib borilayotgan keng ko'lamdagi ishlar ham jamiyatimizda tinchlik-osoyishtalik, o'zaro hurmat va hamjihatlik muhitini mustahkamlashga qaratilgan. Bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish va yanada mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. YUNESKO Bosh konferensiyasining 1995-yil 16-noyabrdagi 28-sessiyasida — Bag'rikenglik tamoyillari to'g'risidagi Deklaratsiya qabul qilindi. Shu kundan e'tiboran 16-noyabr sanasi Xalqaro bag'rikenglik kuni sifatida butun dunyoda, shu jumladan, O'zbekistonda ham keng nishonlab kelinadi. Bag'rikenglikdan asosiy ko'zlangan maqsad insoniyatni tinchlik va osoyishtalikni saqlashga undashdir. Mazkur deklaratsiyada ta'kidlanganidek: — Bag'rikenglik bo'lmasa tinchlik bo'lmaydi, tinchliksiz esa taraqqiyot va demokratiya bo'lmaydi [8]. Dinlararo bag'rikenglik g'oyasi nafaqat dindorlarning, balki, butun jamiyat a'zolarining ezgulik yo'lidagi hamkorligini nazarda tutadi hamda tinchlik va barqarorlikning muhim sharti hisoblanadi. Ko'p millatli mamlakatning muvaffaqiyatli rivojlanishi ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy-siyosiy asoslar hamda axloqiy mezonlar bilan bir qatorda ko'p jihatdan mamlakatdagi turli millatlar va diniy konfessiyalar o'rtasida totuvlik hamda mustahkam tinchlikka bog'liq. Etnik o'ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg'unlashtirishda 2017-yil 19-maydagi — Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoniga asosan, Vazirlar Mahkamasi huzurida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etildi. Ushbu qo'mitaning asosiy vazifalari sifatida jamiyatda millatlararo hamjihatlik va bag'rikenglikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini izchil amalga oshirish, do'stlik va ko'pmillatli yagona oila tuyg'usi muhitini mustahkamlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, shuningdek, do'stona xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish, o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy mamlakatlarning fuqarolik hamjamiyatlari, shu jumladan chet ellarda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan do'stlikni mustahkamlash borasidagi ishlarni samarali muvofiqlashtirish kabi jihatlar ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin. Mazkur qo'mita o'z faoliyati doirasida jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash bo'yicha davlat siyosatini izchil hamda samarali amalga oshirib, 150 ta milliy-madaniy markaz bilan hamkorlik qilmoqda [9]. Bu borada Prezident Sh.Mirziyoyevning —...mamlakatimizda hukm surayotgan millatlar va fuqarolar totuvligi, o'zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini ko'z qorachig'idek saqlash hamda mustahkamlashni o'zining ustuvor vazifam, deb hisoblayman [10], deb ta'kidlagani ham ayni muddao edi. O'zbekiston tarixidagi eng muhim voqealardan biri — 2017-yil 19-sentyabrda Nyu-York shahrida bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Prezident Sh.Mirziyoyev ilgari surgan tashabbusning amaliy ifodasi sifatida 2018-yili BMT Bosh Assambleyasining navbatdagi yalpi sessiyasida — Ma'rifat va diniy bag'rikenglik deb nomlangan maxsus rezolyusiya qabul qilinganligi [11] bo'lib, uning asosiy maqsadi —dunyoda bag'rikenglik va o'zaro hurmatni

oʻrnatish, diniy erkinlikni taʼminlash, dindorlar huquqlarini himoya qilish va ularning kamsitilishiga yoʻl qoʻymaslikdan iborat edi.

YUNESKO tashkiloti ham dunyoda tinchlik, dinlar va konfessiyalararo muloqot oʻrnatish, millat va elatlar hamkorligini rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratib keladi. Ayni paytgacha bagʻrikenglikka oid 70 dan ziyod xalqaro hujjat qabul qilingan. Masalan, 1995-yil 16-noyabr kuni Parijda YUNESKO Bosh Assambleyasi 28-sessiyasida — Bagʻrikenglik tamoyillari toʻgʻrisidagi Deklaratsiya qabul qilingan boʻlsa, shu kundan eʼtiboran 16-noyabr sanasi — Xalqaro bagʻrikenglik kuni sifatida butun dunyoda, shu jumladan, Oʻzbekistonda ham keng nishonlab kelinadi. Bundan koʻzlangan maqsad insoniyatni tinchlik va osoyishtalikni saqlashga undashdir. Mazkur deklaratsiyada: — Bagʻrikenglik boʻlmasa tinchlik boʻlmaydi, tinchliksiz esa taraqqiyot va demokratiya boʻlmaydil, deya taʼkidlangan [12]. Dinlararo bagʻrikenglik gʻoyasi nafaqat dindorlarning, balki, butun jamiyat aʼzolarining ezgulik yoʻlidagi hamkorligini nazarda tutadi. Azaldan yirik shaharlarda turli diniy idoralar oʻz ibodatchilariga emin-erkin xizmat koʻrsatib kelgani, tarixning ogʻir sinovlarida ham diniy asosda mojarolarning chiqmaganligi oʻzbek xalqining dinlararo bagʻrikenglik borasida ulkan tajribaga ega ekanligidan dalolat beradi. Shu bois, Oʻzbekistonda tom maʼnoda diniy bagʻrikenglikning yuksak anʼanalariga amal qilinayotgani jahon hamjamiyati tomonidan eʼtirof etilmoqda. Bu borada Prezident Sh.Mirziyoyev taʼkidlaganidek, — Bugungi osuda hayotimizning qadriga yetish, jamiyatimizda hukm surayotgan turli millat va elatlar, diniy konfessiyalar oʻrtasidagi bagʻrikenglikni, fuqarolar orasidagi oʻzaro hurmat, mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash barchamizning asosiy burchimizdir [13], deb taʼkidlagani ham bejiz emas.

4. Xulosalar:

Umuman olganda, respublikada diniy tashkilot va muassasalarning barpo etilishi natijasida diniy bagʻrikenglik tamoyillarining yaxshi yoʻlga qoʻyilganligi, milliy anʼana va qadriyatlarni yanada rivojlantirish boʻyicha amalga oshirilayotgan ezgu ishlar, koʻrsatilayotgan ulkan eʼtibor va gʻamxoʻrliklar, yaratilayotgan barcha imkoniyat va sharoitlar bugungi hayotimizda aks etmoqda, millatlararo munosabatlarni takomillashtirish va yanada uygʻunlashtirishda muhim omil boʻlmoqda. Oʻzbekistondagi diniy va millatlararo totuvlikni saqlashga doir yuksak insonparvar siyosat, jamiyatdagi barqarorlik, oʻzaro hurmat, hamjihatlik, bagʻrikenglik, mehr-oqibat, muruvvat va shafqat, sahovat muhiti dunyoning koʻplab mamlakatlari uchun havas qilishga va namuna boʻlishga arzigulikdir. Millatlararo munosabatlar, totuvlik va diniy bagʻrikenglikni saqlashga doir davlat siyosatining olib borilishi natijasida umuminsoniy qadriyatlar va milliy urf-odat hamda anʼanalar uygʻunlikda, bir-biridan quvvat olgan holda tobora mustahkamlanib bormoqda. Zero, respublikada hukm surayotgan millatlararo munosabatlardagi doʻstlik va birdamlik muhiti, diniy bagʻrikenglikni yanada takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligi Oʻzbekistonning xalqaro maydondagi obroʻ-eʼtiborini yanada yuksaltirishda muhim omil boʻlmoqda. Respublikada istiqomat qilayotgan millatlar oʻrtasida hamjihatlilikni mustahkamlash, millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirish, diniy bagʻrikenglik va insonparvarlik qadriyatlarini, bu borada amalga oshirilayotgan madaniy-maʼrifiy ishlarni ilmiy asosda yoʻlga qoʻyish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Iqtiboslar/Сноски/References:

[1] Millatlararo doʻstlik va hamjihatlik – xalqimiz tinchligi va farovonligining muhim omilidir. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bagʻishlangan uchrashuvdagi nutqi// Xalq soʻzi, 2017-yil 24-yanvar.

[2] Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – Toshkent: Oʻzbekiston, 2023. – B.24.

[3] Mirziyoyev Sh. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2021. – B.307.;

[4] Kattayev P. Diniy bagʻrikenglik – oʻzbek xalqining oliy qadriyati// <https://oliymahad.uz>.

- [5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi —2022- 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF-60-son Farmoni// <https://lex.uz/docs/5841063>
- [6] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. –B.24.
- [7] Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda / Sh.Mirziyoyev. – Toshkent: O‘qituvchi MU MCHJ, 2021.–B.38.
- [8] Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi. YUNESKO xalqaro me‘yoriy hujjatlari. – Toshkent: Adolat, 2004. – B.92.
- [9] Oqil Salimov. Yangi O‘zbekiston davlati.–Toshkent:Ma‘naviyat, 2023.– B.174.
- [10] Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz//O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishgan tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. –B.8-9.
- [11] Usarova F. Millatlararo totuvlik // Xalq so‘zi// <https://xs.uz/uzkr/post/millatlararo-totuvlik...>
- [12] Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi. YUNESKO xalqaro me‘yoriy hujjatlari. – Toshkent: Adolat, 2004. – B.92.
- [13] Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B.311.

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 5 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 5

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 5

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000